Ushbu taqiqlar umumiy huquq tizimida XX asrning o’rtalariga qadar amal qilib keldi. Biroq aynan shu davrga kelib ingliz sud tizimida sud xarajatlarining keskin ortib borishi nizolarni tashqi moliyaviy resurslar hisobidan moliyalashtirish amaliyotiga bo’lgan ehtiyojni kuchaytirdi. Buni professor J. Sorabji “Ingliz sud tizimining krizisi” deya baholagan (Sorabji, 2014, p. 12). Natijada 1967-yil Angliya parlamenti “Kriminal huquq akti”ga o’zgartirishlar kiritib, xususan, 13(1) va 14(1)-moddalar asosida, “*maintenance and champerty*” amaliyotlarini delikt va jinoyat sifatidagi huquqiy maqomini bekor qildi. Natijada ushbu qonunchilik islohoti Angliya huquqiy tizimida UTMning yangi rivojlanish bosqichi uchun zamin yaratdi hamda “*maintenance va champerty*” amaliyotlari uchun o’rnatilgan taqiqlarni boshqa umumiy huquq yurisdiksiyalarida ham asta-sekin bekor qilinish jarayonini boshlab berdi.

Xalqaro tijorat arbitrajida UTMning asosiy nazariy poydevori bir nechta ilmiy yo’nalishlar, xususan huquqiy va iqtisodiy nazariyalardan kelib chiqadi. Ushbu nazariyalar UTMni XTA doirasida adolatga erishishni ta’minlashda asosiy katalizator) nizolar bilan bog’liq moliyaviy risklarni diversifikatsiya qiluvchi vositasi sifatida asoslaydi. Birinchi yondashuvga ko’ra, UTM moddiy imkoniyati cheklangan jismoniy va yuridik shaxslar uchun o’z huquqiy da’volarini arbitrajga olib chiqish imkoniyatini beruvchi vosita sifatida ko’rilsa (access to justice), ikkinchi yondashuvga ko’ra esa iqtisodiy jihatdan imkoniyat mavjud. Ammo arbitraj nizolari bilan bog’liq moliyaviy chiqimlarni uchinchi shaxs moliyalashtiruvchilari bilan taqsimlash imkonini beruvchi imkoniyat deb baholanadi (risk-allocation and diversification). Bu esa tijorat nizolarida risklarni boshqarish va moliyaviy yuklarni diversifikatsiya qilishga xizmat qiladi.

Y. fon Gyoler aytadiki, UTMning doktrinal asosi, ya’ni adolatga erishishni qo’llab-quvvatlash konstitutsiyaviy huquq hamda inson huquqlari sohalaridan kelib chiqadi (Von Goeler, 2016, pp. 82–83). O’z huquqini amalga oshirish yoki himoya qilishni istagan har qanday shaxsga buni amalga oshirish uchun yetarlicha imkoniyat

yaratilishi lozim bo’lib, bu jarayon hech qanday rad etishlarsiz yoki moliyaviy to’siqlar bilan cheklanmasligi lozim. Agar arbitraj tizimini nizolarni yechishdagi eng qimmat mexanizmlardan biri ekanligiga e’tibor qaratsak va bu mexanizmdan foydalanish davlat tomonidan moliyaviy qo’llab-quvvatlanmasligini inobatga olsak, UTMning ushbu sohadagi o’rni katta ekanligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada professor A. van den Berg ham shunday deydi: “Xalqaro arbitraj faqat boylar uchun adolat tizimi bo’lib qolmasligi kerak, aks holda boy qatlamning qo’lida to’plangan moliyaviy imkoniyatlar adolatdan foydalanish jarayonining monopoliyalashtirilishiga olib keladi (Van den Berg, 2011).

Biroq ayrim olimlar, jumladan, T. Santosuosso va R. Skarlett, UTMning foydaliligi va odil sudlovga erishishdagi roli borasida o’zlarining ilmiy shubhalarini bildiradi. Ularning fikricha, moliyalashtiruvchilar ko’proq foyda keltiradigan arbitraj da’volariga mablag’ ajratishga moyil bo’lib, iqtisodiy jihatdan kichik qiymatga ega bo’lgan da’volarni e’tiborsiz qoldiradi (Santosuosso & Scarlett, 2019, p. 8). Natijada ular UTM amaliyoti xalqaro arbitrajda tijoriy qiymati past bo’lgan da’volar uchun adolatga erishishni sezilarli darajada qo’llab-quvvatlay olmaydi degan xulosaga keladi. Aksincha, ular UTM amaliyoti arbitraj da’volarining tobora “tovar” (kommodifikatsiya) sifatida ko’rilishiga hissa qo’shishini ta’kidlaydi (Shepherd, 2012, p. 600).

Bunga javoban Solas shuni ta’kidlaydiki, foyda olish moliyalashtiruvchilarning biznes modeliga xos tabiiy jarayon bo’lib, uni xalqaro tijorat arbitrajida UTMning salbiy oqibati sifatida baholash to’g’ri emas (Solas, 2019, p. 231). Uning fikricha, muayyan yurisdiksiyada UTM uchun raqobatbardosh bozor shakllana borishi bilan moliyalashtiruvchilarni hatto past qiymatli arbitraj da’volarini moliyalashtirish uchun ham yangi mexanizmlar ishlab chiqishga undash mumkin. Ya’ni UTM amaliyoti industriya darajasiga yetgan sari uchinchi shaxs moliyalashtiruvchilar soni ham ortadi. Bu esa ham moddiy imkoniyati cheklangan, ham moliyaviy jihatdan barqaror taraflar uchun ham xalqaro arbitrajda adolatga erishishni yanada arzon va kengroq imkoniyatlarini yarata-di degan g’oyani ilgari surishadi (Solas, 2019, p. 231). Bu borada Y. fon Gyoler ham UTMning arbitrajdagi foydaliligini va uni iqtisodiy qiymati eng

past bo'lgan arbitraj da'volari uchun ham rentabellik chegarasini tabiiy ravishda yengib o'tadi va samarali moliyalashtirish vositasi bo'la oladi deb ta'kidlaydi (Von Goeler, 2019, pp. 84-85).

Ilmiy adabiyotlarda UTMning xalqaro arbitrajdagi iqtisodiy ta'siri yuzasidan ham bir qator nazariy munozaralar olib borilgan. Ushbu muhokamalar mazkur moliyalashtirish usulining doimiy ravishda rivojlanib borayotgan va o'zgaruvchan tabiatini yaqqol namoyon etadi hamda uning huquqiy-iqtisodiy tizimlardagi dinamik rolini tushuntirish xizmat qiladi. Xususan, dastlab arbitraj hamjamiyati UTMni xalqaro tijorat arbitrajida moliyaviy resurslari yetarli bo'lmagan taraflar uchun o'z arbitraj da'volarini moliyalashtirish imkonini beruvchi "zaruriy vosita" sifatida baholagan. Biroq hozirgi vaqtda UTM nafaqat moddiy imkoniyati cheklangan taraflar uchun, balki iqtisodiy jihatdan imkoniyati bor taraflar uchun ham "risklarni taqsimlash" (risk-allocation) va "diversifikatsiya" (risk-diversification) qilish vositasi sifatida ham qaralmoqda (Solas, 2019, p. 52). Shu nuqtayi nazardan kelib chiqadigan bo'lsak, UTM xalqaro tijorat arbitrajida faqat ehtiyojmand yuridik shaxslar uchun iqtisodiy zarurat vositasi sifatida emas, balki turli biznes egalari uchun "strategik tanlov" bo'lishi mumkin. Ya'ni ushbu moliyalashtirish vositasi orqali xalqaro tijorat arbitraji nizolarida ishtirok etayotgan iqtisodiy jihatdan mustahkam taraflar ham arbitraj bilan bog'liq moliyaviy yukni uchinchi shaxs moliyalashtiruvchilariga o'tkazishlari mumkin. Bu esa ularga o'z moliyaviy resurslarini yanada yaxshiroq boshqarishlarini va arbitraj nizolariga sarf etiladigan mablag'ni o'zlarining boshqa biznes rejalar uchun ajratish imkoniyatini taqdim etadi (Sweify, 2023, p. 13).

Biroq ayrim tanqidchilar, jumladan, M. Abramovich (George Washington University) va J. Kidd (Drake University) UTMga nisbatan tanqidiy yondashuvni ilgari suradi. Ularning fikricha, moliyaviy holati qoniqarli ammo chiqimlardan qochuvchi ushbu nizolashuvchi taraflar UTMdan faqat foyda olish maqsadidagina foydalanishlari mumkin deb baholab, bu esa oxir-oqibat asoslari zaif bo'lgan da'volar sonining ortishiga olib keladi (Abramovich, 2005, pp. 743-745, Kidd, 2012, pp. 627-631). Xususan, Abramovich ta'kidlashicha, moliyalashtirish izlayotgan taraflar ba'zan o'z nizosining haqiqiy holatini buzib

ko'rsatishi yoki da'vo qiymatini oshirib ko'rsatish orqali uchinchi shaxs moliyalashtiruvchi kompaniyalarni chalg'itishi mumkin (Abramovich, 2005, pp. 743-745).

Garchi M. Abramovichning UTM asossiz da'volar sonini oshirishi mumkinligi haqidagi pozitsiyasi akademik doiralarda keng muhokama qilingan bo'lsa-da, amaliyotda ushbu faraz to'liq o'z tasdig'ini topmagan. Masalan, Xalqaro Savdo Palatasi (International Chamber of Commerce, Fransiya) hamda Fuqarolik Adolati Instituti (RAND Institute for Civil Justice) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, uchinchi shaxs moliyalashtiruvchilari o'rtacha hisobda ularga taqdim etilgan nizoli ishlarning atigi 5-10 %inigi-na moliyalashtirish uchun qabul qiladilar. Buning asosiy sababi shundaki, moliyalashtiruvchilar har bir arbitraj nizosini qabul qilishdan oldin uning qiymati, yutish ehtimoli hamda bo'lajak moliyaviy foydasini o'zlarining puxta tekshiruv (due diligence) jarayoni orqali chuqur tahlil qiladilar. Bu esa asossiz da'volarni rag'batlantirishdan ko'ra, aksincha ularni saralab chiqarib tashlashga xizmat qiladi (Dos Santos, 2017, pp. 63-67).

Xalqaro tijorat arbitrajida UTM bir nechta imkoniyatlarni taqdim etsa-da, u sabab vujudga keladigan huquqiy muammolar ham mavjud. Bu huquqiy risklar arbitraj jarayonining shaffofligi, xolisligi va ishonchliligiga jiddiy xavf tug'dirishi mumkin. Pirovardida esa ushbu huquqiy muammolar UTMning XTAdagi asosiy doktrinal vazifasi, adolatga erishish maqsadini ta'minlashda bir qator to'siqlarni vujudga keltiradi.

Ustun mavqeni suiiste'mol qilish. Shu vaqtga qadar o'rganilgan ilmiy ishlarga asoslanadigan bo'lsak, huquqiy tartibga solinmagan UTM amaliyoti moliyalashtiruvchilarning ustun mavqeni suiiste'mol qilishi holatlarining ortishiga olib kelishi mumkin va bu haqida keng qamrovli munozaralar mavjud (Pachahara & Ghandi, 2022, p. 65). Chunki moliyalashtirish shartnomasi tuzilishidan oldin moliyalashtiruvchi va moliyalashtirilayotgan taraf o'rtasida kelishuv shartlari yuzasidan muzokaralar olib boriladi. Ilmiy qarashlarga ko'ra, moliyalashtiruvchi tomon ustun mavqeyiga ega ekanligi sababli ushbu muzokaralarda sezilarli darajadagi ta'sir kuchiga ega bo'ladi. Natijada, uchinchi shaxs moliyalashtiruvchilari moliyalashtirilayotgan tarafga nisbatan ortiqcha bosim o'tkazish orqali moliyalashtirish shartnomasiga

adolatsiz shartlarni kiritishga harakat qilishlari mumkin. Bu turdagi shartlarga, jumladan, olinadigan daromaddan nomutanosib ulushini talab qilish, arbitraj strategiyasiga aralashish huquqini talab qilish va nazorat o'rnatish, shartnomani bir tomonlama bekor qilish huquqini kengaytirish yoki moliyalashtiruvchi manfaatlariga xizmat qiluvchi qoidalar kirishi kabilarni misol tariqasida keltirish mumkin (Dos Santos, 2017, p. 925).

Moliyalashtiruvchi shaxslar va arbitraj o'rtasidagi manfaatlar to'qnashuvi. Umumiy qoida sifatida har bir arbitraj arbitraj jarayoni boshlanishidan oldin nizoda ishtirok etayotgan taraflarga nisbatan manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi, uning paydo bo'lish ehtimoli yoki bunday holatning yo'qligi haqida deklaratsiya berishi shart (Colombo & Yokomizo, 2019, pp. 116–117). Mazkur deklaratsiya arbitrajning mustaqilligi va xolisligini ta'minlashga xizmat qiluvchi asosiy protsessual kafolatlardan biri hisoblanadi. Biroq arbitrlar har doim ham nizo ortida uchinchi shaxs moliyalashtiruvchisining mavjudligidan xabardor bo'lavermaydilar. Natijada ular moliyalashtiruvchiga nisbatan ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi yuzasidan o'zlarining mustaqilligi va xolisligini to'liq oshkor etish imkoniyatiga ega bo'lmasliklari mumkin. Agar arbitraj o'zi qatnashayotgan arbitraj jarayoni ortida uchinchi shaxs moliyalashtiruvchisi borligini bilmasa qanday huquqiy muammo kelib chiqishi mumkin degan savol uyg'onishi tabiiy.

Mazkur holatda muammo ikki xil ko'rinishda namoyon bo'lishi mumkin. Birinchi holatda agar oshkor etilmagan uchinchi shaxs moliyalashtiruvchisi haqidagi ma'lumot arbitraj jarayoni davomida aniqlansa, nizolashuvchi qarshi tomon arbitrajning uchinchi shaxs moliyalashtiruvchisiga nisbatan ehtimoliy manfaatdorligi yoki oshkor etilmagan manfaatlar to'qnashuvini asos qilib ko'rsatgan holda uni arbitraj tarkibidan chetlatishga urinishi mumkin (Von Goeler, 2016, p. 278). Bunday vaziyat esa butun arbitraj protsessining xolisligi va ishonchligini shubha ostida qoldiradi. Ikkinchi holatda esa agar oshkor etilmagan uchinchi shaxs moliyalashtiruvchisi haqidagi ma'lumot arbitraj qarori chiqarilgandan keyin ma'lum bo'lsa, nizolashuvchi qarshi tomon arbitraj jarayoni manfaatlar to'qnashuvi mavjud bo'lgan sharoitda olib borilganini vaj qilib, arbitraj qarorini tan olish va ijroga qaratishni rad

etish talabi bilan milliy sudlarga murojaat qilishi mumkin.

Qarshi tarafning arbitraj xarajatlarini qoplash majburiyatiga oid noaniqliklar. Arbitraj nizosida uchinchi shaxs moliyalashtiruvchisining mavjudligi arbitraj tribunali hamda qarshi taraf tomonidan muayyan "xavf belgisi" sifatida qabul qilinishi mumkin. Chunki aksariyat holatlarda moliyalashtirilayotgan da'vogar moliyaviy jihatdan nochor yoki bankrotlik holatida bo'ladi. Agar moliyalashtiruvchi bilan tuzilgan shartnomada arbitraj qarori qarshi tomon foydasiga chiqarilgan taqdirda protsess xarajatlarini qoplash majburiyati moliyalashtiruvchi zimmasiga yuklatilmagan bo'lsa, qarshi taraf o'z xarajatlarini undira olmaslik xavfi bilan yuzlashishi mumkin. Mazkur holat arbitraj amaliyotida "arbitrajda xarajatlar bo'yicha javobgarlikdan chetlab o'tish mexanizmi" ("arbitral hit and run") deb tasniflanadi. Bunda moliyalashtirilayotgan tarafning yuridik xarajatlarini qoplagan uchinchi shaxs moliyalashtiruvchisi agar moliyalashtirilayotgan taraf ishda yutqazsa, qarshi tarafning arbitraj xarajatlari uchun javobgar bo'lmaydi (Briner & Böckstiegel, 2001, p. 350).

Yuqoridagilarga asosan shunday xulosaga kelish mumkinki, xalqaro tijorat arbitrajining xolisligi, betarafligi va institutsional ishonchligini ta'minlash va shu bilan birgalikda rivojlanib borayotgan mazkur moliyalashtirish industriyasidan oqilona foydalanish uchun uni har tomonlama puxta o'ylangan huquqiy rejim asosida tartibga solish maqsadga muvofiqdir. Zero, uning asosiy doktrinal maqsadi, ya'ni ehtiyojmand biznes qatlami uchun adolatga erishish, samarali amalga oshirilishini kafolatlash uchun ham ushbu moliyalashtirish mexanizmini huquqiy tartibga solish zarur.

Hozirgi kunda UTMni huquqiy tartibga solishda asosan to'rtta asosiy rejimlar keng ilmiy munozaralar markazida. Bular: ixtiyoriy o'zini o'zi tartibga solish ("voluntary" self-regulation), majburiy o'zini o'zi tartibga solish ("enforced" self-regulation), davlat tomonidan qattiq qonunchilik asosidagi tartibga solinish (statutory regulation) hamda arbitraj qoidalari orqali institutsional tartibga solish (institutional regulation) yondashuvlaridir. Quyida esa ushbu modellar kengroq tushuntirib o'tiladi.

UTMni huquqiy tartibga solish deganda eng ko'p munozara qilinadigan modellardan biri bu

ixtiyoriy o'zini o'zi tartibga modelidir. Unga ko'ra, UTM amaliyotining ishtirokchilari, ya'ni uchinchi shaxs moliyalashtiruvchilari o'z xulq-atvor kodekslari va standartlarini mustaqil ravishda ishlab chiqadi hamda ularning ijrosini ham o'zlari ta'minlaydi. Bunda davlatning ishtiroki mavjud bo'lmaydi.

Mazkur tartibga solish modelining o'ziga xos jihati shundaki, u yangi shakllanayotgan biznes sohalarida moslashuvchanlikni ta'minlaydi, innovatsion rivojlanishni rag'batlantiradi hamda davlatning bevosita aralashuvini cheklashga xizmat qiladi. J. Peysner, Y. fon Gyoler va G. Solaslar mazkur boshqaruv shaklini qo'llab-quvvatlovchi eng yirik arbitraj olimlaridandir (Peysner, 2018, pp. 55–80; Von Goeler, 2016, p. 118).

Huquqiy tartibga solish modellari orasida yana bir muhim shakl bu davlat tomonidan qattiq huquq asosidagi tartibga solinish, ya'ni preskriptiv tartibga solish modeli hisoblanadi. Mazkur shaklda tartibga solishda davlat UTM faoliyatiga oid aniq, batafsil va majburiy huquqiy normalar belgilaydi hamda ularga rioya etilmagan taqdirda tegishli javobgarlik choralarini qo'llash ehtimollari nazarda tutiladi. Bunday qoidalar alohida normativ-huquqiy hujjat shaklida qabul qilinishi yoki amaldagi qonunchilik tarkibiga maxsus normalar sifatida inkorporatsiya qilinishi mumkin. Mazkur boshqaruv shaklini qo'llab-quvvatlovchi eng yirik arbitraj olimlaridan biri bu professor H. Yudir (Yu, 2017, p. 31). Uning fikriga ko'ra, javobgarlik va sanksiya mexanizmlaridan xoli bo'lgan xulq-atvor kodekslari orqali boshqaruv UTMni samarali huquqiy tartibga sola olmaydi va uning doktrinal maqsadlari ro'yoga chiqarishda huquqiy kafolatlar taqdim eta olmaydi (Yu, 2017, p. 33).

Majburiy o'zini o'zi tartibga solish modeli esa ixtiyoriy o'zini o'zi tartibga solish hamda davlat tomonidan qattiq qonunchilik asosidagi tartibga solinish elementlarini o'zida mujassamlashtirgan aralash modelidir. Unga ko'ra, ixtiyoriy o'zini o'zi tartibga solish modeli kabi UTM sohasi uchinchi shaxs moliyalashtiruvchilari tomonidan qabul qilingan xulq-atvor kodekslari va boshqa "yumshoq huquq" (soft law) hujjatlari asosida tartibga solinadi. Biroq ushbu modelning farqli jihati shundaki, unda davlat ham UTM sohasi faoliyati ustidan vaqti-vaqti bilan moliyalashtiruvchi kompaniyalardan yillik so'rov orqali monitoring va

nazoratni amalga oshirib, huquqiy tartibga solishda muayyan darajada ishtirok etib turadi.

Bundan tashqari, UTMni huquqiy tartibga solish ayrim yurisdiksiyalarda arbitraj institutlari tomonidan qabul qilingan xalqaro tijorat arbitraji qoidalar orqali ham amalga oshiriladi. Mazkur qoidalar asosan arbitrlar va uchinchi shaxs moliyalashtiruvchilari o'rtasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan manfaatlar to'qnashuvini majburiy oshkor etish mexanizmini joriy etish orqali amalga oshiriladi.

Ushbu huquqiy tartibga solish modelining yetuk tarafdorlari professor M. Sherer va M. Sulufilar bo'lib, ularga ko'ra institutsional boshqarish bu endi rivojlanib kelayotgan UTM industriyasining innovatsion fazilatlarini bo'g'ib qo'ymaydi va aksincha uni qo'llab-quvvatlaydi (Scherer et al 2012, p. 217; Sweify, 2023, p. 205).

Mazkur bo'limda UTMni huquqiy tartibga solishning turli modellari qiyosiy-huquqiy jihatdan tahlil qilinadi. Xususan, Angliya va Uelsning ixtiyoriy o'zini o'zi tartibga solish modeli, Singapurning qat'iy huquqqa asoslangan yondashuvi hamda Gonkongning gibril majburiy o'zini o'zi tartibga solish modeli o'rganiladi. Bo'lim doirasida mazkur yurisdiksiyalarda UTM bilan bog'liq asosiy huquqiy muammolar, jumladan manfaatlar to'qnashuvi, moliyalashtirish faktini oshkor etish majburiyati va arbitraj xarajatlari masalalarini tartibga solish usullari tahlil qilinadi.

Angliya va Uelsda uchinchi shaxs tomonidan moliyalashtirish faoliyati asosan Moliyalashtiruvchilar assotsiatsiyasi tomonidan qabul qilingan Xulq-atvor kodeksi orqali tartibga solinadi. Ushbu kodeks aralashuvsiz yondashuvga ("hands-off") asoslangan bo'lib, ixtiyoriy o'zini o'zi tartibga solish modelini ifodalaydi.

Moliyalashtiruvchilar assotsiatsiyasi esa mustaqil tashkilot bo'lib, uning faoliyati Buyuk Britaniya Adliya vazirligi tomonidan tan olingan. Ushbu tashkilot o'z a'zolari o'rtasida sud jaryonlari va arbitrajni moliyalashtirish faoliyatini mustaqil ravishda nazorat qiladi va qoidabuzar a'zolariga nisbatan sanksiyalar (ogohlantirish, a'zolikdan vaqtincha to'xtatib turish yoki bekor qilish, shuningdek, 500 funt sterlinggacha jarima qo'llash) kiritadi (Peysner, 2018).

Xo'sh, mazkur ingliz modeli UTM sabab kelib chiqadigan huquqiy muammolarni qanday bartaraf etadi yoxud ularga qanday yechim beradi?

Angliya va Uelsning xalqaro tijorat arbitraji faoliyatini huquqiy tartibga soluvchi yagona qonunchilik hujjati bu uning Arbitraj aktidir. Ammo ushbu akt uchinchi shaxslar tomonidan moliyalashtirilish amaliyotini huquqiy tartibga solmaydi. Ya'ni moliyalashtiruvchi tomon va arbitr o'rtasidagi manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish uchun moliyani qabul qilib oluvchi tomonga arbitraj jarayonida moliyalashtiruvchining nomini oshkor etish majburiyatini yuklamaydi. O'z-o'zidan ma'lumki, uchinchi shaxs tomonidan moliyalashtirilgan arbitraj ishlarida qarshi tomonning arbitraj xarajatlarini qoplash masalasi ham aniq tartibga solinmagan. Natijada bu boradagi qarorlarni qabul qilish vakolati asosan arbitraj tribunalining ixtiyoriga qoldirilgan bo'lib, har bir ishning holatlariga qarab hal etiladi. Biroq moliyalashtiruvchilarning ustun mavqeni suiiste'mol qilish ehtimoli Xulq-atvor kodeksi orqali birmuncha cheklanadi. Mazkur kodeks bir qator majburiy standartlarini belgilash orqali moliyalashtirish munosabatlarida muvozanat va halollikni ta'minlaydi. Biroq mazkur kodeks faqat assotsiatsiya a'zolari uchun majburiy va undan tashqarida faoliyat yurituvchi moliyalashtiruvchilarga nisbatan tatbiq etilmaydi. Bu esa ixtiyoriy o'zini o'zi tartibga solish, ya'ni ingliz modelining kuchsiz sanalgan eng katta elementlaridan biridir.

Singapurda arbitrajni uchinchi shaxslar tomonidan moliyalashtirish amaliyoti hukumat qabul qilgan bir nechta qonunchilik hujjatlari orqali tartibga solinadi. Masalan, Fuqarolik akti uchinchi shaxslar tomonidan moliyalashtirilish amaliyotining legalligini belgilab bersa, UTMni Huquqiy tartibga solish reglamenti esa moliyalashtiruvchilarga nisbatan bir nechta majburiyatlarni belgilaydi. Xususan, ushbu reglamentning 4-moddasiga ko'ra: (a) uchinchi shaxs moliyalashtiruvchilari Singapurda yoki boshqa yurisdiksiyada o'zi taraf bo'lmagan nizolarni hal etish jarayonlarini moliyalashtirishni asosiy faoliyati sifatida olib borishi, (b) uning ustav kapitali kamida 5 million Singapur dollari (SGD) miqdorida bo'lishi yoki unga teng xorijiy valyutadagi summada bo'lishi, yoxud kamida 5 million SGDga teng boshqariladigan aktivlarga ega bo'lishi shart (Civil Law (Third-Party Funding) Regulations 2017, Article 4 (1) (a)(b)).

Singapur modelining qiziqarli jihati shundaki, u moliyalashtiruvchi tomon va arbitr o'rtasidagi

manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish masalasini advokatlar zimmasiga yuklaydi. Ya'ni uchinchi shaxslar tomonidan moliyalashtirilgan arbitraj ishlarida mavjud moliyalashtirish faktini oshkor etishni moliyani qabul qilib olayotgan taraf emas, balki uning advokati amalga oshiradi (Legal Profession (Professional Conduct) Rules, 49B (1) (2). Biroq qarshi tomonning arbitraj xarajatlarini qoplash masalasi esa ingliz modeli kabi Singapur modelida ham aniq tartibga solinmagan va bu boradagi qarorlarni qabul qilish vakolati esa arbitraj tribunalining ixtiyoriga qoldirilgan (Rajah, 2017).

Gonkong uchinchi shaxs tomonidan arbitraj jarayonining moliyalashtirilishi amaliyotini huquqiy tartibga solish modelini shakllantirishdan oldin turli davlatlarning tajribalarini chuqur o'rganib chiqqan. Jumladan, Angliya va Uelsning ixtiyoriy o'zini o'zi tartibga solish modelini, Singapur va Avstraliyaning qattiq huquq orqali boshqarish modellari hamda ayrim Yevropa davlatlaridagi *"light touch approach"* yondashuviga asoslangan *"yengil boshqaruv"* tizimlarini ham batafsil tahlil qilgan. Ushbu qiyosiy tadqiqotlar natijasida Gonkong uchinchi shaxs tomonidan moliyalashtirilishni tartibga solishda gibriddashuvni tanladi. Ya'ni Gonkong *"ixtiyoriy"* o'zini o'zi tartibga solish hamda qattiq huquqiy tartibga solish elementlarini uyg'unlashtirgan *"majburiy"* o'zini o'zi tartibga solish modelini ishlab chiqdi va uni 2019-yilda amaliyotga joriy etdi.

Mazkur modelga ko'ra, Gonkong hukumati tomonidan moliyalashtiruvchilarning Xulq-atvor kodeksi qabul qilindi. O'sha davrda Gonkongda yetarlicha rivojlangan va kuchli pozitsiyaga ega bo'lgan mustaqil moliyalashtiruvchilar assotsiatsiyasi mavjud bo'lmaganligi sababli ushbu kodeks xususiy sektor tomonidan emas, balki davlat organi, ya'ni Adliya vazirligi tomonidan ishlab chiqildi va moliyalashtiruvchilarning faoliyatini tartibga soluvchi asosiy instrument sifatida tan olingan. Ushbu kodeksning ingliz modelidagi kodeksdan farqi shundan iboratki, u Gonkongda faoliyat yurituvchi barcha moliyalashtiruvchi kompaniya uchun tatbiq etiladi va ulardan yiliga bir marta hisobdorlik talab etiladi.

Gonkong modelining bir qator o'ziga xos jihatlari mavjud. Xususan, u moliyalashtiruvchi tomon va arbitr o'rtasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan manfaatlar to'qnashuvi masalasini

bevosita o'zining Arbitraj qonuni orqali tartibga soladi (Hong Kong Special Administrative Region, 2010). Mazkur qonunchilikka ko'ra, arbitraj jarayonida uchinchi shaxs tomonidan moliyalashtirish mavjudligini oshkor etish majburiyati normativ darajada mustahkamlangan. Biroq ushbu modelning muhim xususiyati shundaki, mazkur majburiyatning buzilishi avtomatik tarzda alohida huquqiy javobgarlik yoki qat'iy sanksiyalarni keltirib chiqarmaydi (Hong Kong Special Administrative Region, 2010). Shu bois Gonkong modeli oshkor etish talabini qonunchilik asosida belgilagan bo'lsa-da, uning ijrosini ta'minlash masalasida nisbatan yumshoq va moslashuvchan yondashuvni saqlab qoladi.

Uchinchi shaxslar tomonidan moliyalashtirilish amaliyotini huquqiy tartibga solishda institutsional yondashuv, ya'ni xalqaro tijorat arbitraji qoidalari orqali amalga oshirish modeli ham mavjud. Ushbu tahliliy o'rganish doirasida bunday boshqaruv rejimiga misol tariqasida Singapur Xalqaro Arbitraj Markazi hamda Gonkong Xalqaro Arbitraj Markazining Arbitraj qoidalarini keltirish mumkin (Singapore International Arbitration Centre, 2025; Hong Kong International Arbitration Centre, 2024). Mazkur arbitraj institutlari o'z yurisdiksiyasiga qabul qilingan arbitraj ishlarini ko'rib chiqishda uchinchi shaxs tomonidan moliyalashtirilish bilan bog'liq ayrim huquqiy masalalarni bevosita arbitraj qoidalari orqali tartibga solishga harakat qiladi. Xususan, ushbu qoidalar arbitraj jarayonining shaffofligini ta'minlash, arbitrlar va moliyalashtiruvchilar o'rtasidagi manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va oshkor etish majburiyatlarini belgilashga qaratilgan (Hong Kong International Arbitration Centre, 2024).

Xulosa

Yuqoridagi qiyosiy tahlillardan shunda xulosa qilish mumkinki, UTM amaliyotini

huquqiy tartibga solishda yagona yondashuv mavjud emas. Har bir yurisdiksiya o'zining huquqiy tizimi, arbitraj amaliyoti va iqtisodiy manfaatlaridan kelib chiqib alohida rejimni shakllantirgan. Angliya va Uels modeli asosan ixtiyoriy o'zini o'zi tartibga solish tamoyiliga tayanib, davlat aralashuvini minimal darajada saqlashni maqsad qilgan va UTM bozorining erkin rivojlanishiga imkon yaratgan. Biroq moliyalashtirish faktini oshkor qilish va qarshi tomon xarajatlari uchun kafolat berish huquqiy tartibga solinmagani mazkur modelning asosiy zaif tomonlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Singapur modeli esa aksincha, UTMni qat'iy huquq asosida ancha konservativ tarzda huquqiy tartibga soladi. Xususan, moliyalashtirish faktini oshkor qilish majburiyati va moliyalashtiruvchilarning professional faoliyatiga oid masalalar normativ-huquqiy hujjatlar orqali aniq belgilangan. Gonkong modeli esa Angliya va Uels hamda Singapur yondashuvlari o'rtasidagi muvozanatli gibril tizim sifatida shakllangan. U oshkor etish majburiyatini qat'iy huquq darajasida mustahkamlasa-da, uni buzganlik uchun sanksiyalarni nazarda tutmaydi. Shu bois Gonkong modeli bir vaqtning o'zida ham arbitraj tizimining yaxlitligini saqlash, ham UTM industriyasining rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan moslashuvchan yondashuv sifatida baholanishi mumkin.

Umuman olganda, mazkur qiyosiy modellar tahlili shuni ko'rsatadiki, UTMni samarali tartibga solish har bir davlatning o'z huquqiy tizimi, arbitraj amaliyoti va iqtisodiy manfaatlaridan kelib chiqib shakllantirilgan. Shu sababli ushbu industriyaning rivojlanishi ham turli yurisdiksiyalarda turlicha yondashuvlar va tartibga solish usullari bilan bevosita bog'liq bo'lib, kelgusida yanada moslashuvchan va muvozanatli global standartlarga ehtiyoj mavjudligini ko'rsatadi.

REFERENCES

- Abramowicz, M. (2005). On the alienability of legal claims. *The Yale Law Journal*, 114, 697.
Blavi, F. (2015, December 17). *It's about time to regulate third party funding*. Kluwer Arbitration Blog.
Briner, R., & Böckstiegel, K.-H. (Eds.). (2001). *Security for costs in international arbitration: Why, when and what if...* In *Law of international business and dispute settlement in the 21st century*. Heymanns.

- Colombo, S., & Yokomizo, D. (2019). The Hague Principles on Choice of Law in International Commercial Contracts: A Japanese perspective. *Nagoya University Journal of Law and Politics*, 280, 55–82. <https://doi.org/10.18999/nujlp.280.3>
- Derains, Y. (2013). *Foreword*. In *Third-party funding in international arbitration*. ICC Publication.
- Dos Santos, C. (2017). Third-party funding in international commercial arbitration: A wolf in sheep's clothing? *ASA Bulletin*, 35(4), 868–889.
- Gayner, O., & Khouri, S. (2017). Singapore and Hong Kong: International arbitration meets third party funding. *Fordham International Law Journal*, 40(3).
- Gonsales Nieves, F. M. (2016). The feasibility of a third-party funding market for arbitration claims in Puerto Rico. *University of Puerto Rico Business Law Journal*, 7(1).
- Hong Kong International Arbitration Centre. (2024). *HKIAC Administered Arbitration Rules*. <https://www.hkiac.org/arbitration/rules-practice-notes/administered-arbitration-rules>
- Hong Kong Special Administrative Region. (2010). *Arbitration Ordinance (Cap. 609)*. <https://www.elegislation.gov.hk/hk/cap609>
- Hubbuck, N. (2017). *Third party funding and the pitfalls of privilege*. Practical Law: Arbitration Blog.
- Kalicki, J. E. (2006). Security for costs in international arbitration. *Transnational Dispute Management*, 3(5).
- Kidd, J. (2012). To fund or not to fund: The need for second best solutions to the litigation finance dilemma. *Journal of Law, Economics and Policy*, 8(3).
- Pachahara, S., & Ghandi, A. (2022). Third-party funding in international commercial arbitration. *Conflict Studies Quarterly*, 41, 60–77.
- Parliament of England. (1275). *Statute of Westminster I (3 Edw. I)*. The National Archives. <https://www.legislation.gov.uk/aep/Edw1/3/5>
- Peysner, J. (2018). *Playing the man not the ball*. In *Litigation, costs, funding and behaviour: Implications for the law* (1st ed.). Routledge.
- Rajah, I. (2017, January 10). *Second Reading Speech by Senior Minister of State for Law, Indranee Rajah SC, on the Civil Law (Amendment) Bill 2016*. Ministry of Law, Singapore. <https://www.mlaw.gov.sg/news/parliamentary-speeches/second-reading-speech-by-senior-minister-of-state-for-law--indra3>
- Santosuosso, T., & Scarlett, R. (2019). Third-party funding in investment arbitration: Misappropriation of access to justice rhetoric by global speculative finance. *Boston College Law Review*, 60.
- Scherer, M., Goldsmith, A., & Fléchet, C. (2012). Third party funding in international arbitration in Europe: Part 1—Funders' perspectives. *International Business Law Journal*, (2), 207–220.
- Shepherd, J. M. (2012). Ideal versus reality in third-party litigation financing. *Journal of Law, Economics, and Policy*, 8.
- Singapore International Arbitration Centre. (2025). *SIAC Rules 2025*. <https://siac.org.sg/siac-rules-2025>
- Solas, G. M. (2019). *Third party funding: Law, economics and policy*. Cambridge University Press.
- Sorabji, J. (2014). *English civil justice after the Woolf and Jackson reforms: A critical analysis* (1st ed.). Cambridge University Press.
- Sweify, M. F. (2023). *Third party funding in international arbitration: A critical appraisal and pragmatic proposal*. Edward Elgar Publishing.
- Van den Berg, A. J. (2011). *New options for funding international arbitration: An arbitrator's perspective*. Kluwer Law International.
- Von Goeler, J. (2016). *Third-party funding in international arbitration and its impact on procedure*. Wolters Kluwer.
- Yu, H.-L. (2017). Can third-party funding deliver justice in international commercial arbitration. *International Arbitration Law Review*, 20(1).

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

2026-yil maxsus son

VOLUME 10 / SPECIAL ISSUE / 2026

DOI: [HTTPS://DX.DOI.ORG/10.51788/TSUL.ROLS.2026.10.SI](https://dx.doi.org/10.51788/TSUL.ROLS.2026.10.SI).